

Date: 1st November-2025

**YO‘L-TRANSPORT SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH
VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA MA‘MURIY QAMOQQA OLISH JAZO
CHORASINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

Baxramov Xojiakbar Xusanovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti.

Annotatsiya: Maqolada yo‘l-transport sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashishda ma‘muriy qamoqqa olish jazo chorasining o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari, zaruriyati hamda ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l-transport sohasidagi huquqbuzarliklar, yo‘l bezoriligi, huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashish, ma‘muriy qamoqqa olish ma‘muriy jazo chorasi, ma‘muriy qamoqning muddatlari.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО АРЕСТА В
ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ И БОРЬБЕ С ПРАВОНАРУШЕНИЯМИ В ДОРОЖНО-
ТРАНСПОРТНОЙ СФЕРЕ**

Аннотация. В статье освещается роль, специфика, необходимость и значение административного ареста в предупреждении и борьбе с правонарушениями в дорожно-транспортной сфере.

Ключевые слова: профилактика и борьба с правонарушениями в сфере дорожно-транспортного движения, дорожное хулиганство, административный арест как мера административного наказания, сроки административного ареста.

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF ADMINISTRATIVE DETENTION AS A
PUNISHMENT MEASURE IN PREVENTING AND COMBATING TRAFFIC
VIOLATIONS**

Annotation. The article highlights the role, specifics, necessity and importance of administrative arrest in preventing and combating offenses in the road transport sector.

Key words: prevention and combating of offenses in the field of traffic, traffic hooliganism, administrative arrest as a measure of administrative punishment, terms of administrative arrest.

Ma‘lumki, insoniyat, jamiyat, davlatning rivojlanishida yo‘l, transport va ular bilan bog‘liq infratuzilma muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tarixiy haqiqatdir. Biroq, yo‘l, transport va ular bilan bog‘liq infratuzilmadan to‘g‘ri foydalanish, boshqarish (ta‘mirlash) qoidalari va talablariga rioya etmaslik, ularni mensimaslik yoki ko‘pol ravishda buzish holatlari esa bu sohadagi qoidabuzarliklarga yoki odamlar jarohatlanishi yoxud o‘limiga, halokatga yoxud boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelishi yoxud sabab bo‘lishi mumkin.



Date: 1st November-2025

Sir emaski, transport vositalari orasida avto-mototransport va u bilan bog'liq infratuzilma o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz hududlarda bu borada muayyan ishlar qilinmoqda.

So'nggi yillarda yo'l qurilishi va ta'mirlashga 61 trillion so'm ajratilgan. Bu – 2017 yilgacha berilgan mablag'lardan 3,5 barobar ko'pligidan dalolat beradi. Respublikamizda onlayn murojaat tizimi ishga tushirilgan bo'lib, yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalariga to'g'ridan-to'g'ri kelib murojaat qiladiganlar 50 foizga kamaydi. Yo'llarda harakatlanish xavfsizligi xizmati sohasidagi 3 ming 365 nafar xodim elektron planshet va bodikamera bilan ta'minlandi.

Qoidabuzarliklarni sun'iy intellekt asosida saralash va qaror chiqarish amaliyoti joriy qilindi. Shaharlarda jamoat transporti uchun maxsus yo'laklar ajratildi. Bosqichma-bosqich haydovchilarga qator yengilliklar joriy etilmoqda, jumladan, birinchi marta huquqbuzarlik qilganlarni jazolash emas, ogohlantirish yo'lga qo'yildi. Yo'l chiziqlarini bosish holatlarini kamera orqali fiksatsiya(qayd) qilish bekor qilindi.

Jamoat transporti uchun mo'ljallangan qatorlarda kechqurun boshqa haydovchilar ham yurishiga ruxsat berildi. Shuningdek, shaharlarda yo'llarni kunduzi ta'mirlash taqiqlandi. Radar bor joyda bu haqda yo'l belgisini o'rnatish majburiy etib belgilandi.

Biroq, sohada hali dolzarb masalalar ko'p. Birinchi navbatda, yo'l-transport hodisalari. O'tgan yili 9 ming 364 ta yo'l-transport hodisalari sodir bo'lgan. Ularda qariyb 9 ming fuqaro jarohat olgan. Eng achinarlisi, 2 ming 203 nafar odam halok bo'lgan.

Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni ta'kidladi "Har to'rtinchi avariya bir kishi yoki kuniga o'rtacha olti kishi vafot etayotgani barchani qattiq tashvishga solishi kerak!" [1].

Harakatlanish xavfsizligi, eng avvalo, yo'llarning holati va qulayligiga ham bog'liq. Bu borada, yurtimizning ko'plab tumanlarida yo'l infratuzilmasi yaxshilanib, avtohalokatlar ehtimoli kamaytirilgan. Ammo, 20 ta hududda yo'l-transport hodisalari soni yuqoriligicha qolmoqda. Umuman, yurtimizda bunday hodisalar oqibatidagi zarar yalpi ichki mahsulotga nisbatan o'rtacha 0,4 foizni tashkil qilayotganidan dalolat bermoqda.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev yo'llarda haydovchilik madaniyatini oshirish ham juda dolzarb masalalardan biri ekanligini e'tirof etib quyidagilarni ta'kidladilar "O'tgan yili qariyb 20 millionta qo'pol qoidabuzarlik sodir etilgan. Ayrim haydovchilarda bu surunkali tus olgan. Endi bunday ashaddiy huquqbuzarlarga qonun kuchini ko'rsatish maqsadida "Surunkali qoidabuzarlar" dasturi ishga tushiriladi. Qarama-qarshi tomonga harakatlanish, qizil chiroqda o'tish yoki tezlikni oshirish kabi qoidabuzarliklarni takroran qilganlar uchun bir yilgacha jarimadan chegirma berilmaydi. Bunday huquqbuzarliklar bir oy ichida 10 tadan ko'p bo'lsa, olti oygacha haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilinadi. Me'yordan 2-3 karra tez yurganlar haydovchilik huquqidan mahrum qilishgacha jazolanishi mumkin." [2].

Yuqorida ta'kidlangan holatlardan kelib chiqib shuni e'tirof etish kerakki, respublikamizda, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik bilan qo'riqlanadigan (shu jumladan, transportdagi, yo'l xo'jaligi sohalaridagi) ijtimoiy munosabatlarga tajovuz



Date: 1st November-2025

qilinganda, ya'ni huquqbuzar shaxs tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun uning huquqiy oqibati sifatida – ma'muriy jazo O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llanilishi belgilangan [3].

Ma'muriy jazo esa o'z navbatida – ma'muriy javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan aybdor shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Transportdagi, yo'l xo'jaligi sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ushbu jazo choralarning qaysi turi, qanday huquqbuzarlik uchun qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining Umumiy qismidagi ma'muriy jazo qo'llanilishining umumiy qoidalari, tegishli ma'muriy jazo chorasini tartibga soluvchi moddalar, shuningdek Maxsus qismidagi "Transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlangan XI-bobning 113–150-moddalarida (jami 54-moddada) muayyan ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddaning yoki tegishli qismlaridagi sanksiya doirasida nazarda tutilgan ma'muriy jazo chorasi, vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan qo'llaniladi.

Biz tahlil qilayotgan ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi – mavjud ma'muriy jazo (turlari) choralari orasida o'ziga xos o'rin va ahamiyatga ega bo'lgan "jiddiy" yoki "og'irroq" ta'sir qiluvchi ma'muriy jazo chorasi hisoblanadi.

Ushbu ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasini tavsiflovchi hamda tartibga soluvchi "Ma'muriy qamoqqa olish" deb nomlangan 29-moddasida ushbu jazo chorasiga tushuncha berilmagan bo'lsa-da, ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasining qanday sharoitda, qancha muddatgacha, qaysi vakolatli organ va mansabdor shaxs tomonidan belgilanishi shuningdek, mazkur moddaning ikkinchi qismida qanday shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi qo'llanilishi mumkin emasligi qayd etilgan [3].

Biroq, ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasining tushunchasi mazkur jazo chorasini o'tash tartibini tartibga solishga qaratilgan alohida qonunda qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. 2017-yil 9-yanvarda qabul qilinib 2019-yil 10-yanvarda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi O'RQ-420-son Qonunining Asosiy tushunchalar deb nomlangan 3-moddasida Ma'muriy qamoqqa olish chorasiga quyidagicha: "Ma'muriy qamoqqa olish – ma'muriy jazo turi bo'lib, u shaxsni jamiyatdan vaqtincha ajratib qo'yish sharoitlarida saqlashdan iborat va uch sutkadan o'n besh sutkagacha bo'lgan muddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun o'ttiz sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi" tushuncha berilgan [4].



Date: 1st November-2025



Yuqoridagi holatlarni umumlashtirgan holda ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin deb hisoblaymiz. "Ma'muriy qamoqqa olish – huquqbuzar shaxsga nisbatan uning shaxsiy erkinligini muayyan muddat (uch sutkadan o'n besh sutkagacha, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun – o'ttiz sutkagacha)ga vaqtinchalik cheklash va jamiyatdan ajratib qo'yishdan iborat bo'lgan ma'muriy jazo chorasidir.

Ma'muriy qamoqqa olish ma'muriy jazo chorasi amaldagi kodeksning Maxsus qismida nazarda tutilgan faqat ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar uchun belgilangan bo'lib, ular o'zining darajasi jihatidan jinoiy qilmishlarga yaqin bo'lgan, takroran sodir etiladigan, og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanuvchi jamiyatga zid "qo'pol" huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi.

Ularni tahlil qiladigan bo'lsak, amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 2025-yil 22-avgust holatigacha kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalariga ko'ra Maxsus qismidagi "Transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlangan XI-bobning 113–150-moddalarida ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan jami 54-moddaning **7 tasida ma'muriy qamoqqa olish** jazo chorasi nazarda tutilgan.

1) 116¹-modda. Havo kemasidan foydalanish vaqtida lazer nurini yo'naltirish orqali xalaqit berish;

2) 116²-modda. O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish;

3) 128¹⁰-modda. Yo'l bezoriligi;

4) 131-modda. Transport vositalarini mastlik holatida boshqarish;

5) 136-modda. Transport vositalari haydovchilarining va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi;

6) 137-modda. Yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolish;

7) 140-modda. Mastlik holatidagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish yoki boshqarishni unga topshirish.

Mazkur yettita moddalarning ikkitasida (116¹-; 116²-m.) bir qismli moddalarning aynan birinchi qismi sanksiyasidayoq huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish belgilangan bo'lsa, to'rtta moddalarning (128¹⁰-; 131-; 136-; 137-m.) faqat ikkinchi qismlarida jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish nazarda tutilgan, faqat bitta 140-moddaning uchinchi qismida jarima solishga yoki o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olish qayd etilganligini ta'kidlashimiz mumkin[5].

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining "Ma'muriy qamoqqa olish" deb nomlangan 29-moddasida Ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun – o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llanilishi. Ma'muriy qamoqqa olish jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan, favqulodda holat

Date: 1st November-2025

tartibi sharoitida esa, shuningdek harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilanishi qayd etilgan.

Shuningdek, mazkur 29-moddaning ikkinchi qismida ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasini qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar ro'yxati ham belgilangan bo'lib, ushbu ma'muriy-huquqiy normaga asosan quyidagi:

- 1) homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga;
- 2) 14 yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga;
- 3) o'n sakkiz yoshga to'lmagan (ya'ni voyaga yetmagan) shaxslarga;
- 4) birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga;

5) shuningdek, MJtKning 16-moddasida nazarda tutilgan harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi qo'llanilishi mumkin emas[6].

Shu bois, Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi sudyasining qarori, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa, shuningdek harbiy komendantning yoki ichki ishlar organi boshlig'ining qarori – ma'muriy qamoqni o'tash uchun asos bo'ladi. Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qaror boshqa ayrim ma'muriy jazo choralari qo'llash to'g'risidagi qarorlardan, qaror chiqarilgandan keyin **darhol** ijro etilishi bilan farqlanadi.

Mazkur ma'muriy-huquqiy normalarning sanksiyalarida asosan ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasining faqat eng ko'p muddati keltiriladi. Bunday hollarda ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan muayyan moddaning sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan muddat (o'n besh sutka)gacha tayinlanishi mumkin. Istisno holatlari ham mavjud. Masalan, avval ta'kidlangan 7ta moddalardan faqat uchtasida ma'muriy qamoqqa olishning aniq va to'liq (15 sutka) muqarrar mudati belgilangan. Bu quyidagi "qo'pol" qoyidabuzarliklar uchun nazarda tutilgan:

1) "Yo'l bezoriligi" deb nomlangan 128¹⁰-moddaning ikkinchi qismida "transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan yoki transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxs tomonidan boshqa transport vositalarining harakatiga qasddan to'sqinlik qilishi, harakatlanish burchagini va (yoki) tezligini saqlagan holda transport vositasini sababsiz sirpantirishi (drift), o'z yo'nalishida harakatlanish bo'lagini sababsiz keskin ravishda uch va undan ortiq marta uzluksiz o'zgartirishi (bundan maxsus ajratilgan joylarda sodir etish mustasno) yoki yo'l harakati ishtirokchilarining xavfsiz harakatlanishiga tahdid soluvchi yoxud transport vositasida yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga nisbatan hurmatsizlikda ifodalangan boshqa xatti-harakatlarni namoyishkorona sodir etganlik uchun" – bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarima solishga yoki o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi belgilangan.

2) "Transport vositalarini mastlik holatida boshqarish" deb nomlangan 131-moddaning ikkinchi qismida "transport vositalarini alkogolli ichimlikdan mastlik holatida



Date: 1st November-2025



yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida boshqarish, transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa" – bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarima solishga yoki o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

3) "Mastlik holatidagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish yoki boshqarishni unga topshirish" deb nomlangan 140-moddaning uchinchi qismi sanksiyasida bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarima solishga yoki o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi qayd etilgan.

Shuningdek, ma'muriy qamoqqa olish chorasining yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning faqat asosiy jazo tariqasida qo'llaniladigan jazo chorasi hisoblanishidir.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikda ma'muriy qamoqqa olish chorasi asosan, eng umumiy "universal" jarima solish yoki qamoqqa olish jazo chorasini qo'llanilishini nazarda tutuvchi sanksiyaga ega normalar ko'pchiligini tashkil etadi.

Shuningdek, erkin muomalada bo'lishi taqiqlangan ashyo(predmet)lar bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish jazo chorasi bilan birgalikda ham qo'llaniladi. Ya'ni ashyoni musodara qilib, jarima solishga yoki ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Agarda ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar huquqbuzarlik sodir qilganida esa ma'muriy qamoq jazosining o'rniga jarima jazo chorasi samarali qo'llaniladi.

Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi ham quyidagi xususiyatlarga ega. Ma'muriy qamoqni o'tash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar ichki ishlar organlari belgilab qo'ygan joylarda qamoqda saqlanadilar. Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qarorni ijro etish chog'ida qamoqqa olinganlar shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladilar.

Shuningdek, ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati ham ma'muriy qamoq muddatiga qo'shib hisoblanadi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar jismoniy ishlarda foydalaniladi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar mehnatidan foydalanishni tashkil etish tuman (shahar) hokimliklariga yuklatiladi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarga qamoqda bo'lgan vaqtlari uchun doimiy ish joylaridan ish haqi to'lanmaydi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslardan jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi sudyasining, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa, shuningdek harbiy komendantning yoki ichki ishlar organi boshlig'ining qaroriga ko'ra, maxsus qabulxonada saqlash bilan bog'liq xarajatlar sutkasiga bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi miqdorida huquqbuzar shaxsdan undiriladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va ob'ektiv ko'rib

Date: 1st November-2025



chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasini qo'llashda vakolatli organ (mansabdor shaxs) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning, ya'ni qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanishi shartdir. Shuningdek, ma'muriy jazoning qo'llanish chog'ida quyidagi:

- 1) sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati;
- 2) huquqbuzarning shaxsi;
- 3) uning aybdorlik darajasi;
- 4) mulkiy ahvoli;
- 5) javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar;
- 6) javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinishi zarur.

Ma'muriy qamoqqa olish esa – javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2025-yil 9-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida o'tkazilgan "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi" yuzasidan videoselektor yig'ilishi.
2. O'sha manba.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 2025. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025 y., 03/25/1083/0769-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi 2017 yil 9 yanvar O'RQ-420-son qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 2-son, 24-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 2025. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025 y., 03/25/1083/0769-son.
6. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 11 apreldagi O'RQ-762-sonli Qonuni tahririda // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2022 y., 03/22/762/0290-son.